


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 27 456 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 18 779 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

**2025- yil 1- yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 10 171 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 54,2 % ni tashkil etdi.

**2025- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2025- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (45,8 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘shishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


**2025- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 43 255,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda Yashash va ovqatlanish xizmatlariga (39,7 %), savdo xizmatlariga (18,8 %), transport xizmatlariga (13,1 %), moliyaviy xizmatlariga (10,2 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %



2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 8 299,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2024- yil yanvar-dekabr) oyiga nisbatan xizmatlar hajmi 13 921,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga Yashash va ovqatlanish xizmatlari (6 047,9 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (2 328,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (2 023,6 mlrd. so'mga), hamda moliyaviy xizmatlari (1 275,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2023- yilning mos davrida Yashash va ovqatlanish xizmatlar – 3 591,6 mlrd. so'm, savdo xizmatlar – 1 300,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 1 035,5 mlrd. so'm va moliyaviy xizmatlar – 817,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>43 255,9</b>	<b>110,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 300,7	113,0
moliyaviy xizmatlar	4 405,1	117,1
transport xizmatlari	5 642,8	109,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 347,3	111,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	17 177,0	109,3
savdo xizmatlari	8 113,5	112,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	660,0	112,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 165,7	112,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	528,3	109,4
ijara xizmatlari	555,0	103,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 107,7	113,8
shaxsiy xizmatlar	1 006,9	107,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	321,7	114,8
boshqa xizmatlar	1 271,5	103,9

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar 117,1 %, me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 114,8 % , kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar 113,8 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari ijara xizmatlari 103,2 %, boshqa xizmatlar 103,9 % hamda boshqa shahsiy xizmatlari 107,8 % da kuzatildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 18,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlari 10,2 %, transport xizmatlari 13,1 % egallaydi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 8 113,5 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 1 300,6 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste‘mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

#### Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



**ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,1 %**



**atomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 15,2 %**



**chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 73,7 %**


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 73,7 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,1 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 15,2 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### **2024- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




2024- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 1 300,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sishi 217,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 80,5 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 99,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 0,7 % ga to'g'ri keladi.


### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 4 405,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 117,1 % ni tashkil etdi.

### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,5 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 165,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 112,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 17 177,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 39,7 % ga yetdi.


### **2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>43 255,9</b>	<b>110,9</b>
Qarshi sh.	6 100,1	116,6
Shahrisabz sh.	1 154,9	110,9
G'uzor	868,4	112,7
Dehqonobod	815,9	111,1
Qamashi	1 656,5	110,0
Qarshi	1 777,8	111,1
Koson	1 289,0	112,4
Kitob	1 801,5	110,6
Mirishkor	1 141,8	110,6
Muborak	1 288,4	112,1
Nishon	1 152,3	111,8
Kasbi	1 268,8	109,5
Ko'kdala	425,8	109,5
Chiroqchi	801,8	109,9
Shahrisabz	1 340,0	112,4
Yakkabog'	1 167,1	109,8
Taqsimlanmagan hajm	19 205,9	112,1

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (6 100,1 mlrd. so'm), Koson tumani (1 289,0 mlrd so'm), Muborak (1 288,4 mlrd. so'm), Kitob tuman (1 801,5 mlrd. so'm) va Qarshi tuman (1 777,8 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm G'uzor (868,4 mlrd. so'm), Dehqonobod (815,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (801,8 mlrd. so'm), va Ko'kdala (425,8 mlrd. so'm) da kuzatilmoqda.


### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar – 116,6 %, G'uzor tumani – 112,7 %, Nishon tumani – Shahrisabz tumani 112,4 % va Koson tumani 112,4 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


**2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (14,1 %), Shahrisabz sh (4,9 %), Kitob tumani (4,2 %) va Qarshi (4,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,0 %), Dehqonobod tumani (1,9 %) va Chiroqchi ( 1,9 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan hajm 2 089,1 ming so'mga oshib 12 015,5 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 20 456,4 ming so'm, Muborak tumanida 13 662,6 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (114,2 %) Shahrisabz tumanida (110,5 %), va Koson tumanida (109,8 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qamashi (107,6 %) Yakkabog' (107,5 %), Kasbi (107,1 %) va Chiroqchi (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Qarshi sh.	1 053,1 mlrd. so'm
Shahrisabz sh.	401,3 mlrd. so'm
G'uzor	294,2 mlrd. so'm
Dehqonobod	347,8 mlrd. so'm
Qamashi	525,5 mlrd. so'm
Qarshi	593,5 mlrd. so'm
Koson	538,0 mlrd. so'm
Kitob	552,7 mlrd. so'm
Mirishkor	425,5 mlrd. so'm
Muborak	336,5 mlrd. so'm
Nishon	332,8 mlrd. so'm
Kasbi	402,3 mlrd. so'm
Ko'kdala	171,9 mlrd. so'm
Chiroqchi	258,9 mlrd. so'm
Shahrisabz	412,7 mlrd. so'm
Yakkabog'	402,4 mlrd. so'm

Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (1 053,1 mlrd. so'm), Qarshi (593,5 mlrd. so'm) va Kitob (552,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (171,9 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 8 113,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi.


## 2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Shahrisabz (134,1 %), Nishon (124,3 %) va G'uzor tumanlarida (121,3 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Kitob tumanida (105,0 %) va Kasbi tumanida (106,4 %) qayd etildi.

## 2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Qarshi shahri (13,0 %) va Qarshi (7,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Chiroqchi tumanida (3,2 %) Ko'kdala (2,1 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 5 642,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil etdi.

### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Kitob tumanida (634,2 mlrd. so'm) va Qarshi shahrida (490,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Shahrisabz shaharda (65,6 mlrd. so'm) qayd etildi.